

OGAHYNING TARIXIY ASARLARINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

ABDUMAJIDOVA ZARNIGOR SHUXRAT QIZI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI AMALIY FANLAR
FAKULTETI XORIJIY TIL VA ADABIYOTI (INGLIZ TILI) YO'NALISHI 2-KURS
TALABASI

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Muhammad Rizo Ogahiyning tarixiy asarlari va ularning bugungi kundagi ahamiyati yoritib berilgan. Bugungi globallashuv davrida milliy tarixni o'rganish, ajdodlar merosini chuqur anglash va tarixiy xotirani saqlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, Ogahiy qoldirgan tarixiy asarlar bugungi kun tadqiqotchilari, talabalar va keng kitobxonlar uchun bebaho manba vazifasini o'taydi. Mazkur mavzu orqali Ogahiy tarixiy merosining hozirgi zamondagi ahamiyatini ochib berish, uning ilmiy va ma'naviy qiymatini yoritish muhim ilmiy vazifalardan biri sanaladi.

KALIT SO'ZLAR: Mumtoz adabiyot, tarixnavislik, tarjimon, ilmiy meros, Xorazm, Riyoz ud-davla, tarixiy voqealar

ABSTRACT: This article highlights the historical works of Muhammad Rizo Ogahi and their significance in the present day. In today's era of globalization, studying national history, deeply understanding the heritage of our ancestors, and preserving historical memory are among the most pressing issues. From this perspective, the historical works left by Ogahi serve as invaluable sources for modern researchers, students, and a wide range of readers. Revealing the contemporary importance of Ogahi's historical legacy and

highlighting its scientific and spiritual value is considered one of the important scholarly tasks.

KEYWORDS: Classical literature, historiography, translator, scientific heritage, Khorezm, Riyoz ud-davla, historical events.

АННОТАЦИЯ: В данной статье освещаются исторические произведения Мухаммада Ризо Огахи и их значение в современности. В условиях современной глобализации изучение национальной истории, глубокое осмысление наследия предков и сохранение исторической памяти являются одними из наиболее актуальных задач. С этой точки зрения исторические труды, оставленные Огахи, служат бесценным источником для современных исследователей, студентов и широкого круга читателей. Раскрытие значения исторического наследия Огахи в наши дни, а также освещение его научной и духовной ценности является одной из важных научных задач.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Классическая литература, историография, переводчик, научное наследие, Хорезм, Риёз уд-давла, исторические события.

KIRISH

O'zbek mumtoz adabiyoti va tarixnavisligi taraqqiyotida Muhammad Rizo Ogahiy muhim o'rin tutadi. U nafaqat iste'dodli shoir va mohir tarjimon, balki o'z davrining yetuk tarixchisi sifatida ham boy ilmiy meros qoldirgan. Ogahiy yashagan davr — ijtimoiy-siyosiy jihatdan murakkab, ammo tarixiy voqealarga boy davr bo'lib, u bu jarayonlarni o'z asarlarida haqqoniy va izchil ravishda aks ettirishga harakat qilgan.

Ogahiyning tarixiy asarlari, Xorazm vohalarida yuz bergan siyosiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarni yoritishda muhim ma'lumotlar jamlanmasi hisoblanadi. Uning

asarlarida hukmdorlar faoliyati, davlat boshqaruvi, xalq turmushi va davr muammolari keng qamrovda tasvirlangan bo'lib, bu jihatlar ularni nafaqat adabiy, balki ilmiy-tarixiy jihatdan ham qimmatli qiladi.

Biz ushbu maqolada Ogahiy asarlaridan aynan "Riyoziy ud-davla" asarini tahlil qilamiz. Ogahiyning nodir qo'lyozmalaridan biri "Riyoziy ud-davla" asari bo'lib, bu asar 1825 yildan 1842-yilgacha Xorazmda bo'lgan voqealarni o'z ichiga oladi. Bu asar Ogahiy tarafidan 1260-1844-yilda yozilgan². Ogahiy o'zining "Riyoziy ud-davla" asarini, shuningdek, quyida keltirilgan asarlarni yozar ekan, o'sha davr tarixchilarning an'anasiga muvofiq, hamd va na't bilan boshlaydi. So'ngra o'z hayoti haqida qisqacha gapirib, Olloqulixonni maqtaydi. Undan so'ng tarix ilmiga ta'rif berib, bu asarning yozilish tarixiga va buning yozilishiga sababchi bo'lgan shaxslar haqida gapiradi.¹

Ogahiyning bu asari bugungi kunda qaysi jihatlari bilan muhim o'rin tutishi haqida bosqichma-bosqich ko'rib chiqamiz. Dastlab, tarixiy manba sifatida muhim ekanligiga to'xtalamiz. Ogahiy asarlari o'z davrining ishonchli hujjati hisoblanadi. Unda real voqealar, hukmdorlar va jamiyat hayoti yoritib berilgan. Jumladan asardagi tarixiylikni Xiva xonligidagi siyosiy voqealar tasviri orqali ham bilib olishimiz mumkin. "Riyoziy ud-davla" asarida Xiva xonligida hukmdorlar faoliyati, davlat boshqaruvi va ichki siyosiy vaziyat batafsil bayon qilingan. Asarning tarixiy ahamiyati -xonlarning taxtga chiqishi, saroy ichidagi siyosiy kurashlar, davlat boshqaruvidagi o'zgarishlar kabi vaziyatlarda o'z aksini topadi.

Milliy o'zlikni anglashdagi ahamiyati

Muhammad Rizo Ogahiyning tarixiy asarlari milliy o'zlikni anglashda nihoyatda muhim o'rin tutadi. Ogahiy asarlarida xalqning o'tmishi, davlat tuzumi, ijtimoiy hayoti batafsil yoritilgan. Uning asarlari o'z tarixini bilishga yordam beradi. Inson o'z tarixini bilsa, o'zining kimligini anglaydi. Shuningdek, ajdodlarimizning hayoti, kurashlari va

¹ .<https://newjournal.org/01/article/view/4209/3994>

yutuqlari ham tasvirlangan. Bu esa yosh avlodga faxr va g'urur tuyg'usini beradi. Milliy qadriyatlarni anglashga xizmat qiladi. Uning asarlarida urf-odatlar, an'analar, axloqiy qarashlar aks etgan. Bu orqali milliy qadriyatlar saqlanadi va davom ettiriladi. Tarixiy xotirani tiklaydi.

Madaniy merosni saqlashdagi ahamiyati

Muhammad Rizo Ogahiyning tarixiy asarlari madaniy merosni saqlash va uni kelajak avlodga yetkazishda nihoyatda muhim o'rin tutadi. Ularning bu boradagi ahamiyatini quyidagicha yoritib berish mumkin:

- * Tarixiy madaniy boyliklarni aks ettiradi
- * Ajdodlar merosini kelajak avlodga yetkazadi
- * Milliy qadriyatlarni asrab qoladi
- * Madaniy identitetni mustahkamlaydi
- * Ilmiy va madaniy tadqiqotlar uchun asos bo'ladi

Bugungi kunda Ogahiy merosini chuqur o'rganish, uning asarlarida aks etgan tarixiy, madaniy va ma'naviy qadriyatlarni tahlil qilish-o'zbek milliy o'zligining shakllanish jarayonlarini yanada to'liq anglashga xizmat qiladi. Xususan, uning "Riyoziy ud-davla", "Gulshan ul-voqeot", "Zubdat ut-tavorix" kabi asarlari o'z davrida Xorazm va Turkiston o'lkasidagi siyosiy jarayonlar, davlat boshqaruvlari, ijtimoiy hayot, shuningdek, madaniy taraqqiyot haqida muhim manba vazifasini o'taydi.²

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Muhammad Rizo Ogahiyning tarixiy asarlari o'zbek xalqining ma'naviy merosining ajralmas qismi hisoblanadi. Uning asarlarida tarixiy voqealar izchil va haqqoniy yoritib berilgan. Ogahiyning asarlari nafaqat tarixiy manba hisoblanadi balki u

² <https://worldlyjournals.com/index.php/IFX/article/view/17587/21514>

milliy o'zlikni anglashda muhim vosita sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi. Ogahiyning asarlari tarixiy haqiqatni tiklash, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va ilmiy tadqiqotlarni boyitishda muhim manba sifatida alohida o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://newjournal.org/01/article/view/4209/3994>
2. <https://worldlyjournals.com/index.php/IFX/article/view/17587/21514>
3. Ogahiy ijodiy merosi va sharq adabiyotida adabiy an'ana. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to'plami. -Toshkent, 2022.